# DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARDA KORPORATIV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xalilova Yulduz Nusratulloyevna**
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

**Kirish:** O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ulushi mavjud korxonalar sezilarli o‘rin tutadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi, boshqaruv tizimining shaffofligi va samaradorligiga bog‘liq. Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ushbu korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. **Mazkur tezisda** Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) misolida davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ tizimni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi.

**Ushbu tezishni yozishdan maqsad:** hozirgi kunda davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ tizimini takomillaashtirish davr talabiga aylandi. Mazkur soha yanada izlanishni talab etadi. Ushbu tezish ana shu maqsadda yozildi.

**Natija:** davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ tizimini takomillaashtirish sohasida yangi islohotlarni amalga oshirish.

**Kalit so‘zlar:** davlat ulushi, korporativ tizim, tezis, tamoyillar, boshqaruv, aksiya.

# IMPROVING THE CORPORATE SYSTEM IN ENTERPRISES WITH STATE SHARES

**Introduction:** Enterprises with state shares occupy a significant place in the economy of Uzbekistan. Their effective operation depends on the transparency and efficiency of the management system. By improving the corporate governance system, it is possible to increase the competitiveness of these enterprises. This thesis analyzes the issues of improving the corporate system in enterprises with state shares using the example of the Navoi Mining and Metallurgical Combine (NMMC).

**The purpose of writing this thesis:** currently, improving the corporate system in enterprises with state shares has become a requirement of the time. This area requires further research. This thesis was written for this purpose.

**Result:** implementation of new reforms in the field of improving the corporate system in enterprises with state shares.

**Keywords:** state share, corporate system, thesis, principles, management, action.

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОЙ СИСТЕМЫ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДОЛЕЙ

**Введение:** Государственные предприятия играют значительную роль в экономике Узбекистана. Их эффективное функционирование зависит от прозрачности и эффективности системы управления. Конкурентоспособность этих предприятий может быть повышена за счет совершенствования системы корпоративного

управления. В диссертации анализируются вопросы совершенствования корпоративной системы на предприятиях с государственным участием на примере Навоийского горно-металлургического комбината (НГМК).

**Целью написания данной статьи является**: совершенствование корпоративной системы на предприятиях с государственным участием, что в настоящее время стало требованием времени. Эта область требует дальнейшего исследования. Именно с этой целью и была написана данная диссертация.

**Результат:** реализация новых реформ в области совершенствования корпоративной системы на предприятиях с государственным участием.

**Ключевые слова:** государственная доля, корпоративная система, тезис, принципы, управление, действие.

Ma’lumki, korporativ boshqaruvning qator mohiyati va tamoyillari mavjud. Xususan, korporativ boshqaruv bu korxona manfaatdor tomonlari o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtiruvchi tizim bo‘lib, aksiyadorlar, direktorlar kengashi va rahbariyat o‘rtasidagi mas'uliyat va vakolatlarni tartibga soladi. Korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari: shaffoflik, hisobdorlik, tenglik, mas’uliyat va samaradorlik. O‘zbekistonda ham korporativ boshqaruv tizimining rivojlanish holati: Oxirgi yillarda korporativ boshqaruvga oid normativ-huquqiy baza takomillashdi. Aksiyadorlik jamiyatlarida mustaqil direktorlar, audit qo‘mitalari va kuzatuv kengashlari faoliyati joriy etildi. Biroq amaliyotda korporativ boshqaruv prinsiplariga to‘liq rioya qilinmasligi, ayniqsa davlat ulushi mavjud korxonalarda uchraydi. NKMKda korporativ boshqaruvning joriy etilishi: NKMK yirik sanoat korxonasi bo‘lib, davlat ulushi saqlanib qolgan. 2020-yildan so‘ng kombinatda korporativ boshqaruv elementlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Kuzatuv kengashi va mustaqil direktorlar instituti faoliyat yurita boshlagan.



**NKMKdagi mavjud muammolar:** Davlat vakillarining strategik qarorlarni qabul qilishdagi biryoqlamaligi. Aksiyadorlar yig‘ilishlarining formal xarakterda o‘tishi. Moliyaviy axborotlarning yetarlicha oshkora bo‘lmasligi. Ichki audit tizimining zaifligi va tashqi auditning mustaqil emasligi.

**Taklif va tavsiyalar:** Davlat vakillari uchun korporativ boshqaruv bo‘yicha maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil etish. Mustaqil direktorlar vakolatini kengaytirish va ularning real qarorlar qabul qilishdagi rolini oshirish. Moliyaviy va strategik ma’lumotlarni ommaga taqdim etish orqali shaffoflikni oshirish. Ichki nazorat va audit xizmatlarini kuchaytirish hamda ularni kuzatuv kengashi ostida ishlashini ta’minlash. Xalqaro tajribani o‘rganib, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, davlat ulushi mavjud korxonalarda, xususan NKMKda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ularning samaradorligini oshirish mumkin. Buning uchun tizimli islohotlar, ilg‘or xalqaro tajriba asosida yondashuv, shuningdek, korxona ichki muhitini sog‘lomlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PQ–4886-son qarori.
2. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonun.
3. NKMK rasmiy hisobotlari: www.ngmk.uz
4. Shodmonov S.H., “Korporativ boshqaruv asoslari”, Toshkent: 2022-yil.

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE